

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDA DISKURS TUSHUNCHASINING NAZARIY AHAMIYATI.

Boltayeva Zilola

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Tilshunoslikda “discourse” atamasi an'anaviy ravishda nutq, muloqot, nutq faoliyati, matn, kommunikativ vaziyat, monolog, dialog, so'zlashuv kabi tushunchalar bilan izohlanib, gapning semantik sintaktik tahlili bilan cheklanib qoladigan til birligidan farqli o'laroq aytilgan gapdan tushuniladigan mazmun mohiyatini o'z ichiga oladi. "Diskurs tahlili" atamasi esa birinchi bo'lib tilshunos Zellig tomonidan ishlatilgan bo'lib,

Xarris o'zining 1952 yilda "Diskurs tahlili" nomli maqolasida diskurs tahliliga-o'zaro bog'langan muloqot yoki yozma nutqni tasviriy tilshunoslik doirasidagi an'anaviy gap tahlilidan tashqari yuzaga keladigan ma'no va mazmun aloqadorligi tahlili deb tavsif beradi.[1]

Kalit so'zlar: discourse, lisoniy ifodaning, kommunikativ birliklar, pragmatika, dinamik nutq maydoni.

Discourse tushunchasi yuzasidan ko'plab olimlar tadqiqot olib borishgan va uni turlicha tahlil va talqin qilishga urinishgan, mazmun va vazifasiga ko'ra turlarga ajratib tizimlashtirishgan. Ingliz tilshunosi Guy Cook (1991) fikricha diskurs deb bir necha gaplarning o'zaro bog'lanib yaxlit bir ma'noga ega bo'lishi va tinglovchiga tushunarli bo'lishiga aytiladi. Ushbu jamlanish muloqot uchun muhim hisoblanib buni gaplarning grammatik tahlili bilangina anglanishi qiyindir. Cookning fikricha ingliz tili ikki xil o'rganish ob'yekti sifatida mavjud bo'lib: birinchisi o'qitish va o'rganish uchun qolipga solingan, yoki grammatik qoidalarni o'rganish shakli va ikkinchisi grammatik jihatdan to'liq bo'lgan yoki bo'lmagan, lekin so'zlovchi va tinglovchiga tushunarli bo'lgan diskurs-amaldagi ingliz tilidir. Diskurs tahlilining rivojlanishi 1960-yillar va 1970-yillarning boshlarida, turli fanlar yuzasidan olib borilgan izlanishlar jumladan, tilshunoslik, semiotika, antropologiya, psixologiya va sotsiologiyani chuqur o'rganish natijasida alohida bir fan sifatida shakllangan. Misol tariqasida ko'plab olimlarning yozgan asarlari yuqorida aytilganlarining dalilidir. J.L. Ostin, so'zlar bilan qanday ish yuritsa bo'ladi (1962) asari bilan o'zining mashhur ijtimoiy nazariya, nutq-akt nazariyasi haqida tushuncha bergan, Dell Hymes esa(1964) nutqni o'rganish orqali yorqin ijtimoiy kelajak sari asari, Jon Searle (1969) esa Ostinning asarini ustida ishlab chiqdi va takomillashtirdi. Tilshunos faylasuf, M.A.K. Halliday diskursning lingvistik xususiyatlarini aniqlab berish uchun katta xizmat

ko'rsatdi (Halliday 1961) va 1970-yilda tilga funksional yondashuvni ma'lum darajaga shakllantirdi (Halliday 1973).

Celce Murcia va Olshtayn diskursning shakl va ma'no uyg'unligiga ega bo'lgan til sifatida izohlab o'zaro munosabatlarni ifoda etishini ta'kidlashgan va asosan ikki xil yozma diskurs va so'zlashuv diskursi sifatida tahlil qilishgan (Celce Murcia & Olshtain 2000). Yozma diskurs sifatida jurnalizm (yangiliklar maqolalari va tahririyat), ilmiy asarlar (kitob, ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy jurnalla), adabiyot (badiiy, tarixiy asarlar, she'riyat va drama), xatlar (shaxsiy, biznes, kasbga oid), Stenariyalar (kino, televideniya, radio), Internet yozuvlari (elektron xatlar, elektron saytlar, v.b). So'zlashuv diskursi sifatida muloqot, suhbat, ma'ruza, intervyu, amr ma'ruf, nutq, yangiliklar va hokazolarni misol keltirsa bo'ladi. [2]

Diskurs, Harrisning til va kontekst aloqadorligi deb ta'kidlaganida, turli kontekstda turli ma'noga ega bo'lishi mumkin ekanligini "The runway is full at the moment" misolida asoslab bergan. Ayni bir diskurs turli vaziyatda turlicha idrok etilishi mumkinligi: havo qatnovi nazoratchisini² havo kemasi boshqaruvchisiga aytilishi samolyot ayni damda qo'nishga joy yo'qligini bildirsa, kutuvchilarga uning kechikish sababini bildirishini nazarda tutgan edi. Hymes (1964) tomonidan muloqot etnografiyasi tushunchasi yuzasidan olib borilgan tadqiqoti natijasida turli xil madaniy jamiyatda muloqotlar har xil vaziyatda turlicha amalga oshirilishini anglab yetgan. Hymesning ishi o'sha paytdagi tilshunoslikda til o'rganishda madaniyat va antropologik tavsifni e'tiborga olish muhim emas degan nuqtai nazarga qarshi e'tiroz sifatida amalga oshirilgan edi. Xususan, u nutqiy hodisalarning kim so'zlayotgani, kimga, nima haqida, nima maqsadda, qaerda va qachon so'zlayotganligi, so'zlovchining madaniy sharoitini, uning yashash tarzini belgilab berishini asoslab bergan. Hymes haqli ravishda faqatgina so'zlarni ma'nosini tushunib gapirish jarayoni suhbatning umumiy ma'nisini tushunishga yordam berolmaydi, balki ma'noni tushunishish ko'p jihatdan kontekstga bo'g'liq ekanligini ta'kidlagan. Mashhur antropolog Dell Hymes bu g'oyani targ'ib qilib o'z zamonasining tilshunosligida grammatik qoidalarining tahlili muhim rol o'ynagan bir paytda fonema, morfemalarni tahlil qila olish qiziqarli, ammo muloqotni to'liq tushunish uchun yetarli emasligi, chunki turli millat va madaniyat a'zolarining til elementlaridan foydalanish usulini kuzatgan va uning har xil madaniy jamiyatlarda farqli ekanligini anglab yetgan edi. [3]

Ba'zi tillarda to'g'ridan-to'g'ri biror vazifani bajarish yuzasidan ko'rsatma berilmaydi, aks holda kurashishga chaqiruv / tahdid qilish kabi ma'nolar anglashiladi, qo'pollik harakati sifatida namoyon bo'ladi. Misol uchun, "Eshikni oching" iborasi grammatik jihatdan to'g'ri, lekin madaniy jihatdan ijtimoiy kontekstda kamsitish yoki qo'pol qabul qilinishi mumkin⁴ va uning o'rnida "eshikni ochiq qoldirsakchi" degan iborani ishlatishni afzal ko'rishadi.

Boshqa bir madaniy jamiyatda esa bu kabi iboralar odatiy hisoblanadi. Bu kabi lisoniy ifodaning madaniyatlar orasida aks etdirilgan tafovutni Hymes vaziyat deb nomladi. Bazibir vaziyatlarda (oilalar davrasida, do'stlar davrasida, motam, to'y, rasmiy marosim v.h.) muloqotning faol ko'rinishi bilan, ba'zilar esa muloqotning mavjud emasligi bilan aks etdiriladi.

Gumperz va boshqa tilshunoslarning ta'kidlashicha madaniy jihatdan kengroq ijtimoiy-siyosiy kontekstlarni ko'rib chiqish zarurati joylashuv aloqasi sodir bo'ladi, chunki bu kontekstlar tor fokusdan ko'rinmaydigan aloqa xususiyatlarini aniqlashi mumkin faqat kommunikativ misollar asosida. Etnografiyaning muhim taraqqiyoti va tegishli sohalarda ijtimoiy-siyosiy kontekstlarning qanday bo'lishi mumkinligiga e'tibor qaratildi aloqa xususiyatlari bilan belgilanadi va mustahkamlanadi, shuningdek ularni belgilovchi. Mitchell (1957) matnlarning diskursiv tuzilishini tadqiq qilgan birinchi tadqiqotchilardan biri hisoblanib, odamlar xarid qilish va sotish jarayonida nutqiy faoliyat yuritish usullarini ko'rib chiqdi. U bu kabi matnlarning umumiy tuzilishini ko'zdan kechirib, diskursiv tahlil bosqichlari; til foydalanuvchilarining o'zaro muloqot jarayonida qaysi bosqichlardan o'tib borishlarini aniqladi.

Shu bilan birga Mitchell tildan qanday foydalanilishini, o'zaro umumiy muloqot davomida ma'no vaziyat kontekstida qanday ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan.

Diskursga voqelikning ijtimoiy shakllantirilishi sifatida qarash, matnlarni kommunikativ birliklar sifatida ijtimoiy va madaniy amaliyotlar natijasida yuzaga kelishi va yoki aksincha yozma matnlar va so'zlashuv nutq asosida dunyo shakllanadi va shuningdek diskurs ham dunyoda bo'ladigan o'zgarishlar natijasida shakllanadi deb ta'rif bergan B. Johnstone.[3] Boshqacha qilib aytganda, diskurs bir tilda so'zlashiladigan Jamiyatni shakllantirishga va odamlar esa foydalanadigan tilni shakllantirishga qodirdir. Diskurs, shuningdek, aytib bo'lingan, aytilayotgan va aytiladigan nutqning o'zaro kelishuvi bo'g'liqligi asosida ma'lum bir shaklga ega bo'ladi, matnlarning mumkin bo'lgan maqsadlari doirasini shakllantiradi (Johnstone 2007) Cook(1989) o'zining diskurs haqidagi asarida pragmatika tilning jismoniy, ijtimoiy va psixologik jihatlarini o'z ichiga olsa, diskurs bu elementlarning o'zaro kelishuvini ko'rsatib beradi. Pragmatika mazmunnung ayni bir maqsad atrofida rivojlanganini ko'rsatsa, diskurs o'zini harakatlanuvchi film kabi vaqt davomida (ba'zida uzoq muddat) tasvirlanadi.[3] Cook (1989) o'zining asarida diskursni struktura jihatidan rasmiy (oldindan rejalashtirgan) va norasmiyga ajratadi, turi jihatidan esa reciprocal (o'zaro muloqot asosida) va non-reciprocal (ma'ruza, kitob, v.h) ga ajratadi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidan ham ko'plab tilshunos olimlar diskurs yuzasidan izlanishlar olib borib, o'z fikrlarini bildirishgan. Masalan N. D. Arutyunova diskurs haqida "ekstralingvistik, pragmatik, sotsial-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan uyg'unlashgan izchil matn",

“hayotga singib ketgan nutq” degan fikr bildirgan. E.F.Kirovning ta’kidlashicha, diskurs – ma’lum bir madaniyat doirasidagi ma’lum bir tildagi yozma va og‘zaki matnlarning butun mavjudlik tarixi davomida yig‘indisidir. E.S.Kubryakova va O.V.Aleksandrova diskurs nutqni ishlab chiqarish, nutq asarini yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan kognitiv jarayon sifatida izohlaydi va ular matnni ma’lum bir tugagan (va qat’iy) shaklga ega bo‘lgan lisoniy faoliyat jarayonining yakuniy natijasi sifatida tasavvur etadilar.[4] Yu. S.Stepanov esa diskurs strukturaviy va funktsional o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan eng yuqori darajadagi lingvistik birlik bo‘lib, u "XX asr oxirida, til ko‘rinishidagi yangi xususiyatdir. Boshqacha qilib aytganda, nutq harakati sifatida so‘zlovchining nutq ifodasi (og‘zaki-intonatsion va paralingvistik), tildan tashqari omillar (ijtimoiy, madaniy, ta’sirchan nutq o‘zaro ta’siri uchun zarur bo‘lgan psixologik jihatlar v.h) tushuniladi. Boshqa bir rus tilshunosi diskurs haqida qo‘yidagicha ta’rif beradi strukturaviy-matnli yondashuv nutqni belgilash urg‘uni matnga o‘zgartiradi uning muhim tarkibiy qismi va ko‘proq darajada matn tuzilishini tahlil qiladi. Shu munosabat bilan nutqda matnning holatini belgilash katta ahamiyatga ega: "Dinamik nutq maydonida matn markaziy o‘rinni egallaydi: uni aniqlash mumkin "buklangan" nutq sifatida og‘zaki/yozma shakli xususiyatiga ko‘ra. Agar nutq tildan foydalanish jarayoni sifatida belgilanadi. Og‘zaki va yozma nutqda matn odatda "har qanday yozma nutq (adabiy ish, insho, hujjat va boshqalar, shuningdek, ulardan bir qismi, ko‘chirma)".[5]

References

1. Harris Z.S. Discourse Analysis: Reprints. «Papers on Formal Linguistics». – The Hague, 1952. – P.16.
2. Brian Paltridge. Discourse analysis. An introduction 2012.- p. 2
3. Barbara Johnstone & Christopher Eisenhart. Rhetoric in detail. ansi z39.48-1984.
4. Aiman Reyaz, Priyanka Tripathi. School of Humanities and Social Sciences. Indian Institute of Technology Patna Bihta- 801 103 (Bihar), INDIA
5. Андреева В. А. Литературный нарратив: дискурс и текст: Монография / В. А. Андреева. – СПб.: Норма, 2006. – 182 с.
6. Васильева Н. В. Краткий словарь лингвистических терминов / Н. В. Васильева, В. А. Виноградов, А. М. Шахнарович / Отв. ред. чл.-корр. РАН Ю. Н. Караулов. – М.: Рус. яз., 1996. – 175 с.
7. Ю. С. Степанов Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности // Язык и наука конца XX века. Сб. статей. - М.: РГГУ, 1995. - С.35-73. (отрывок, раздел 1 - стр.36-45)
8. Ожегов С. И. Словарь русского языка: ок. 57 000 слов / Под ред. Н. Ю. Шведовой. – М.: Рус.яз., 1987. – 852 с.